

QADIMGI TURKIY TIL YODGORLIKLARIDA FONETIK O‘ZIGA XOSLIK

Allamberganova M.

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

QQDU

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada qadimgi yozma yodgorliklar, jumladan, O‘rxun-Enasoy obidalarining fonetik jihati haqida ma’lumotlar beriladi. Unli tovushlarning qo‘llanilishi va tovush tizimidagi fonetik o‘zgarishlar haqida so‘z boradi.*

***Аннотация:** В данной статье представлены сведения о фонетическом аспекте древних письменных памятников, в том числе памятников Орхун-Енасыя. Обсуждаются употребление гласных звуков и фонетические изменения в звуковой системе.*

***Annotation:** This article provides information about the phonetic aspect of ancient written monuments, including the monuments of Orhun-Enasoy. The use of vowel sounds and phonetic changes in the sound system are discussed.*

***Kalit so‘zlar:** O‘rxun-Enasoy obidalari, qadimgi turkiy til davri, run yozuvi, dialek, adabiy til, fonetik o‘zgarishlar.*

***Key words:** Orhun-Enasoy monuments, the period of the ancient Turkic language, runic script, dialect, literary language, phonetic changes.*

***Ключевые слова:** памятники Орхун-Енасой, древнетюркский период, руническая письменность, диалект, литературный язык, фонетические изменения.*

Qadimgi turkiy adabiy til Markaziy Osiyoning turli hududlarida amal qilish jarayonida mahalliy dialektlarning ta’siri ostida o‘zgarishga uchragani tabiiy hol. Shuning uchun ham ayrim turkologlar (masalan, Amir Najib) turli hududlardagi turkiy tillarga nisbatan “adabiy dialekt” atamasini qo‘llaganlar. U yoki bu guruhdagi yozma yodgorliklarga nisbatan “adabiy dialekt” tushunchasi “adabiy til” tushunchasi o‘rnini bosadi. Mazkur qarash faqat o‘rta asrlardagi yozma yodgorliklarga nisbatan emas, balki qadimgi turk davridagi yodgorliklarga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin. Masalan, O‘rxun yodgorliklari tili bilan Enasoy yodgorliklari tili o‘rtasidagi, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari bilan turk-uyg‘ur yozma yodgorliklari tili o‘rtasidagi farqlar shunday fikrga undaydi. Bu farqlar tahlilida yozuv turlari va xususiyatlarini nazarda tutish lozim. Shubhasiz, mazkur dalillar bitta til emas, balki qadimgi turkiy tillar bo‘lgani va Markaziy Osiyoning katta hududidan g‘arbgacha yoyilganini dalillashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, fonetika ma'lum bir til unli va undosh tovushlarining turli davrlardagi taraqqiyoti, har bir taraqqiyot davri uchun xos bo'lgan fonetik sistema, ayrim unli va undosh tovushlarning shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti, asosiy fonetik qonuniyatlar kabi masalalarni o'rganadi. Qadimgi turkiy til fonetikasi, undagi unli va undosh tovushlar haqida aniq va qat'iy bir fikr aytish mushkul, chunki ularning bevosita talaffuz me'yorlarini kuzatishdan, tadqiq qilishdan mahrummiz. Bu haqda yodnomalar tilini o'rganish orqali xulosalar chiqarish mumkin. Ko'k turk bitiglaridagi harflar soni 38 – 40 ta atrofida. Ayrim matnlarda ularning soni bundan ham ko'proq.

Qadimgi turkiy tilda sakkizta unli fonema bo'lib, ular bir-biridan qatori, tor-kengligi, lablanish-lablanmasligiga ko'ra farq qiladi. Bulardan - a, i, o, u orqa qator, ä, i, ö, ü old qator unlilaridir. Keng unlilar - a, ä, o, ö; tor unlilar - i, i, u, ü. Lablanmagan unlilar – a, ä, i, i; lablangan unlilar – o, ö, u, ü. Demak, a - lablanmagan, keng va orqa qator; ä - lablanmagan, keng lekin old qator unlidir. Bu unlining talaffuzi qozoq, qirg'iz hamda ko'pgina qardosh turkiy tillarda, shuningdek, o'zbek tilining singarmonizmli lahja va shevalarida saqlangan. Tatar va boshqirt tillarida bu unli yanada orqaga siljishi va kengayishi natijasida o (hozirgi o'zbek tilidagi til orqa, lablangan o unlisi) ga aylangan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ba'zi o'rinlarda oldingi tomon o ga yaqinlashgan, ayrim hollarda orqaga tomon kengayib ä ga aylangan. Qadimgi turkiy tillardagi ä unlisi esa hozir torayib, ko'pgina turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilida birinchi bo'g'inda e ga aylangan. A.Amanjolov o'rxun bitiglaridagi i yoki yozuvda har doim ifodalanmaydigan ä harfi o'rni bilan e tovushini ham anglatganini ta'kidlaydi. Uning xulosasiga ko'ra e tovushi o'rxun bitiglari tilida ä ga variant sifatida (ä-e) qo'llangan.

Anglashilayotganidek, qadimgi turkiy til o'ziga xos xususiyatlarga ega. Hatto fonetik jihatdan turkiy tilning birinchi va ikkinchi bosqichlari o'zaro bir-biridan ajralib turadi. Qadimgi turkiy til fonetik jihatdan quyidagi o'ziga xosliklarga ega:


1. So'z o'rtasi va so'z oxirida jarangli-jarangsiz va jarangsiz-jarangli undoshlarni yonma-yon qo'llash ko'p uchraydi;

2. O'rxun-Enasoy yodnomalarida, asosan, 41 ta belgi bo'lgan. Ular bir-biriga bog'lanmasdan o'ngdan chapga qarab yozilgan va shunday o'qilgan;

3. Qadimgi turkiy tilda, shuningdek, O'rxun-Enasoy yodgorliklari tilida ohangdoshlikning (singarmonizmning) ham tanglay, ham lab uyg'unligi mavjud bo'lgan;

4. O'rxun-Enasoy yodgorliklarida 8 ta unli qo'llanilgan: til oldi e, ö, u, i tovushlari va til orqa a, o, u, ы tovushlari. Qadimgi turkiy tilning unli fonemalari munosabatidagi bunday miqdoriy tenglik ularning sistemasini kub shaklida ifodalashga imkon beradi. Kubning yuqori qismida tor unlilar, quyi qismida keng

unlilar, old qismida old qator unlilari, orqasida orqa qator unlilari, o‘ng tomonida lablangan va chap tomonida lablanmagan unlilar berildi;



Mazkur alifboda unli tovushlarni ifodalash uchun to‘rttagina belgi bo‘lgan, xolos. Shunga ko‘ra garchi yozuvda to‘rttagina belgi orqali unli tovushlar ifodalansada, nutq tovushi sifatida, ularning soni ko‘proq bo‘lgan, ya‘ni yuqorida qayd qilinganidek, qadimgi turkiy tilda 8 ta unli tovush bo‘lib, ular bir-biridan qatori, tor-kengligi, lablangan-lablanmaganligiga ko‘ra farqlanadi. O‘rxun va Enasoy bitiklari jahon turkiyshunoslari e‘tibori qaratilgan nodir yodgorliklardandir. Ular asosan, toshga o‘yib bitilgan yozuvlardan, idish, tanga kabi buyumlarda va qog‘ozlarga yozilgan bitiklardan iborat bo‘lib, bir qancha vaqtlar olimlar uchun o‘qilishi jumboq bo‘lib qoladi. Shunga ko‘ra, u qadimgi skandinav-german tillariga oid run, runiy (Runa “sirli, yashirin”) nomi bilan ham yuritiladi. Bitiktoshlar VII-VIII asrlarga tegishli bo‘lib, turk xoqonligi davrida runiy yozuvda bitilgan. Ular grafik jihatdan bir-biriga ancha yaqin turadi. So‘g‘diy yozuvi ta‘sirida paydo bo‘lgan qadimgi turkiy run yozuvi G‘arbiy va Sharqiy turk xoqonligida keng tarqalgan. Toshbitiklar turkiy xalqlar tarixida favquloddagi yozma adabiyot emas. Ular qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodining mantiqan davomi, o‘zidan avvalgi adabiyotning mazmuni, ruhi, g‘oyasini rivojlantirgan yangi shaklidir. Chunki tosh bitiklardagi arxaik tasvirlar shundan dalolat beradi.

Demak, yodnomalarda bayon qilish usuli va bu usulning uch qat‘iy unsurlari-asarda boshlanma, voqea rivoji, tugallanmaning mavjudligi turkiy, umuman, barcha xalqlar og‘zaki ijodiga xos arxaik xususiyatlardir. Tosh bitiklar qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodining davomi sifatida yuzaga kelganligi ko‘plab jihatlarda ko‘rinadi.

Adabiyotlar:

1. Allamberganova, M. (2021). O‘rxun-Enasoy obidalarining O‘zbekistonda o‘rganilishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (4), 20-24.

2. Ruslanovna, A. M., & Maxsudovich, A. D. (2022, June). Qadimgi turkiylar shakllanishi va turk atamasining kelib chiqishi. In E Conference Zone (pp. 74-77).

3. Ruslanovna, A. M. (2024, March). Turkiy yodnomalarda ko‘plik qo‘shimchasi taraqqiyoti. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 8, pp. 112-116).

4. Sodiqov Q. Omonov Q. O‘zbek tilining yozma uslublari tarixidan Тошкент-2010.

5. Содиқов Қ. Ески туркий матнлар, Тошкент-2009.

6. Раҳмонов Н. Ўрхун-Энасой ёдномалари Тошкент-1987;

7. Rahmonov N, Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. Тошкент-2009, 223 бет